

**O‘ZBEK TILINING BUXORO SHEVASIGA OID AYRIM  
DIALEKTIZMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

*Samarqand davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va  
adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi  
Tursunqulova Ruxshona Ikrom qizi  
Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini  
assistenti Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tili dialektologiyasida alohida o‘rin tutuvchi Buxoro shevasining o‘ziga xos lingvistik va dialektal xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda hududiy shevaning fonetik tizimi, xususan, “o”lanish hodisasi hamda undoshlar tarkibidagi o‘zgarishlar lisoniy dalillar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada Buxoro shevasi leksik qatlamining shakllanishi va grammatik qurilishiga uzoq muddatli tarixiy-madaniy aloqalar natijasida qo‘shni tojik (fors) tili ko‘rsatgan kuchli lisoniy ta’sir tahlil qilingan. Maqola xulosalari shahar shevalarining hozirgi holati va o‘zbek dialektologiyasini boyitishda muhim o‘rin tutadi.

**Kalit so‘zlar.** Buxoro shevasi, qarluq lahjasi, ikki tillilik (bilingvizm), fonetik o‘zgarishlar, o‘lanish hodisasi, morfologik xususiyatlar, hozirgi zamon fe’li, leksika, sheva va adabiy til.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan asr mobaynida o‘zbek shevalari jadal ravishda taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va bugungi kunini tushunish va izohlash uchun sheva dialekt lahja tushunchlari qo‘llaniladi.

Sheva – forscha so‘z bo‘lib, ravish, tarz, yo‘sin degan ma’nomlarni anglatadi va ma’lum bir hudud (qishloq, tuman yoki shahar) aholisiga xos bo‘lgan, adabiy tildan fonetik, leksik va qisman grammatik jihatdan farqlanuvchi jonli muloqot vositasidir. [2:11] U tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, xalqning o‘tmishi va madaniyatini o‘zida sof holda saqlab qoluvchi o‘ziga xos “jonli arxiv” hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro shahar va uning atrofidagi qishloq shevalari asrlar davomida ikki tillilik (o‘zbek va tojik tillari) muhitida shakllanganligi sababli, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda o‘ta muhim lisoniy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Dialekt – yunoncha so‘z bo‘lib, sheva, so‘zlashish degan ma’nomlarni anglatadi. Dialekt tushunchasi shevaga nisbatan kengroq qamrovga ega bo‘lib, u bir guruh yaqin shevalarning umumiy lisoniy xususiyatlarini birlashtiruvchi yirik hududiy til tarmog‘idir. [1:12] Dialektlar ma’lum bir mintaqa aholisining etnik tarkibi va tarixiy shakllanish jarayoni bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek tili dialektologiyasida Buxoro

shevalari mansub bo'lgan qarluq-chigil dialekti adabiy tilimizning shakllanishiga asos bo'lgan poydevordir. Shuning uchun ham dialektal xususiyatlarni tadqiq etish milliy tilning ichki imkoniyatlarini va dialektal boyligini aniqlashda katta ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbek shevalari o'zining murakkab etnik va tarixiy tarkibi tufayli, asosan, uchta yirik lahjaga bo'linadi. Bulardan Qarluq lahchasida so'zlashuvchilar hudud jihatidan Samarqand Buxoro, Xo'jand va ular atrofidagi qishloq aholisi hisoblanadi. Bu tip shevalarining shahar va ayrim qishloqlarda yashovchi vakillari ikki tilli bo'lib o'zbek va tojik tillarida so'zlashadilar. Buxoro tip shevalariga taalluqli bo'lgan bir tilli qishloq shevalari ham tojik tili ta'siri kuchliligi bilan xarakterlanadi.

Buxoro shevasining fonetik xususiyatlari:

1. Har qanday pozitsiyada ham "a" unlisi ishlatiladi. Masalan, yamon, mo'rcha, matal.

2. "i, u, o" unilarning kontrast juftligi yo'q. Masalan, chimiliq, qalampur.

3. "o" tovushi sal lablangan bo'lib "o'" tovushiga moyil holatda talaffuz qilinadi. Masalan, og'iz, bog'.

4. So'zning ikkinchi bo'g'inida "i" tovushining "u" ga o'tish hodisasi uchraydi. Masalan, xotun, dori, kelsun.

5. "u" va "x" tovushlaridan oldin "u" tovushi "o'" holatida talaffuz qilinadi. Masalan, o'yqu, so'xbat, go'rux

6. "o", "r" va "g" tovushlaridan oldin "o'" ning "u" ga o'tish hodisasi uchraydi. Masalan, usma, bug'ma, ugay.

7. "i" ning "e" ga o'tish hodisasi mavjud. Masalan, mex, Umed.

8. "x" va "h" tovushlari farqlanadi.

9. "f" tovushi mavjud, ammo G'ijduvon va Shofirkon shevalarida "f" ning "p" ga o'tish hodisasi uchraydi. [2:88]

Morfologik xususiyatlari

1. O'rin-payt va jo'natish kelishigi affikslari bir birining o'rnida qo'llaniladi. Masalan, magazinga ishlaydi. Magazinda borip kel.

2. Aniq hozirgi zamon. "-op" affiksi bilan ifodalanadi. Masalan, kelopan, kelopsan, kelopti

3. Tarixiy o'tgan zamon fe'li tuslanmaydi. Shuning uchun ham u o'zi tobelangan so'z bilan shaxs va sonda moslashmaydi.

Man kelgan biz kelgan

San kelgan siz kelgan

U kelgan ular kelgan

"-(a)r", "-mas" sifatdosh va to'liqsiz fe'llardan yasalgan qo'shma fellarda sifatdosh affiksi "-(a)y" "-may" ko'rinishida bo'ladi:

Kelaydim, (kelar edim) kelmaydim, (kelmas edim) kelmasmush, (kelmas emish) kelmaykan (kelmas ekan) ko‘rinishida bo‘ladi. [2:89]

Leksik xususiyatlari

Quyidagi so‘zlar Buxoro shevasi leksikasida muntazam qo‘llanilib, adabiy tilda muqobillariga ega:

zöräb – supurgi

Bibī – buvi

Mörča – chumoli

Īnäk – sigir

Mürüt- mo‘ylov

Källäpöš – do‘ppi bosh kiyim

Näbidüllâ – murabbo

Ämüllâ – amaki

Nârījā – non ushoq

Xöš – yaxshi

Ĝölinä – turshak

Löläčä – yostiq

Bâčâ- bola

Hâmsâyâ – qo‘shni

Nânâ- oyi

Dömäd – kuyov

Yâžnâ – pochcha

Bâqir – chelak

Qittigînâ – ozgina

Xâžärsûpân – isiriq

Jeläb – naski

Sûpâ – hovli

Künjäk – burchak uy burchagi

Gečči – echki

Keläpti-kelyapti

Döläb – janjal

Devänâ – jinni

Ānâ bü – mana bu

Čäqiräpti – chaqiryapti

Miŷšâyit qilmoq – xalaqit qilmoq

Xâymi – xo‘pmi

Qârâb ötir – qarab tur

Kemiyäbsân – kelmayabsan

Etib berâymi – qilib beraymi

Ushbu soʻzlar kontekstda quyidagicha ifodalanadi:

1. Bībīmlâ, âmuġllâmlâ, âpâmlâ kelâpti üyīmīžâ. (Buvimlar, amakimlar, opamlar, kelyapti uyimizga)
2. Bâcâlâ dölâp qīmälärīng berâ. (Bolalar urush qilmanglar bu yerda)
3. Geççīnī qârâdingmī süvīgâ. (Echkini qaradingimi suviga)
4. Nīmâ iş etīb ötirībsân berâ. (Nima ish qilib oʻtiribsan bu yerda)
5. Hâmsâyâlânī çâqīr üyâ mehmân kellī. (Qoʻshnilarni chaqir uyga mehmon keldi)
6. Künjâkdâ türgân bâqīrnī äpke qittīgīnâ gʻölinâ terâylik. (Burchakda turgan chelakni olib kel ozgina turshak terâylik)
7. Nânâgâ âyt dömâdlârīž yâžnâlârīž kelâptīkân de. (Oyingga ayt kuyovlaringiz, pochchalarīngiz keloyatgan ekan deb)
8. Süpâgâ dâvrâcâ qürsīnlar. (Hovliga joy qilsinlar)
9. Berâ närīžâ tâşlâmâ hâmmâ yâq mörçâ bölâdī. (Bu yerga non ushoq tashlama hamma yoqqa chumoli keladi)

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilining Buxoro shevasi oʻzining uzoq yillik tarixiy-etnik shakllanish jarayoni va oʻziga xos lisoniy tabiati bilan boshqa hududiy shevalardan tubdan ajralib turadi. Matnda keltirilgan fonetik tahlillar (masalan, unilarning oʻzgarishi va morfologik koʻrsatkichlar (hozirgi zamon feʻlining -op affiksi orqali yasalishi: kelopan, kelopti) Buxoro shevasining qarluq lahjasiga xos boʻlgan jonli va barqaror tizimga ega ekanligini koʻrsatadi.

Eng muhimi, ushbu sheva hududdagi tarixiy ikki tillilik (oʻzbek va tojik tillari) muhitining chuqur taʼsirini oʻzida aks ettirgan. Bu holat nafaqat grammatik qurilishda, balki leksik qatlamda ham yaqqol namoyon boʻladi. Maqolada keltirilgan zörâb (supurgi), mörçâ (chumoli), källâpōš (doʻppi) kabi oʻziga xos mahalliy soʻzlar (leksik birliklar) Buxoro shevasi lugʻat boyligining oʻziga xosligini va u jonli muloqotda adabiy tildan farqli ravishda oʻz muqobillariga ega ekanligini isbotlaydi.

Umumlashtirib aytganda, Buxoro shevasining dialektal xususiyatlarini tizimli oʻrganish oʻzbek tili tarixini, uning lahjaviy rang-barangligini hamda tillararo aloqa qonuniyatlarini tadqiq etishda ulkan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ashirboyev Samixon. Oʻzbek dialektologiyasi. Darslik. Toshkent, Navroʻz. 2021. 176 b.
2. T.J.Enazarov va boshqalar. Oʻzbek shevashunosligi. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. Universitet, 2012. 187 b.
3. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 232 б.
- ажабов Назар. Ўзбек шевашунослиги: Дарслик – Тошкент, Ўқитувчи. 1996. – 304 б.
5. Ўзбек халк шевалари лугати. Тошкент., “Фан”, 1971. 409 б.